



## O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH AGENTLIGI DIREKTORINING

### BUYRUG‘I

2022-yil “12” avgust

48 - son

Toshkent shahri

**Ochiqlikni ta’minlashga mas’ul xodimlar bilan shartnomalar tuzishda qo‘llash uchun tavsiyaviy xususiyatga ega bo‘lgan ochiqlikni ta’minlash sohasida qonunchilik talablarini buzganlik uchun intizomiy javobgarlikni belgilovchi namunaviy shartlarni tasdiqlash haqida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 14-iyundagi “Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqlik darajasini oshirish va baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-154-son Farmonida belgilab berilgan vazifalar ijrosini ta’minlash **maqsadida**:

#### BUYURAMAN:

1. Davlat organlari va tashkilotlarining ochiqlikni ta’minlashga mas’ul xodimlari bilan shartnomalar tuzishda qo‘llash uchun tavsiyaviy xususiyatga ega bo‘lgan ochiqlikni ta’minlash sohasida qonunchilik talablarini buzganlik uchun intizomiy javobgarlikni belgilovchi namunaviy shartlar ilovaga muvofiq tasdiqlansin.


2. Davlat organlari va tashkilotlari faoliyati ochiqligini ta’minlash boshqarmasi (A.Ergashev):

- davlat organlari va tashkilotlari o‘rtasida namunaviy shartlarning mohiyati va ahamiyatini tushuntirishga qaratilgan tashkiliy chora-tadbirlarni amalga oshirsin;

- mazkur buyruq va ilovaga muvofiq tasdiqlangan namunaviy shartlar ommaviy axborot vositalarida e’lon qilinib, vazirlik va idoralarga yetkazilishi ta’minlansin:

3. Ushbu buyruq ijrosini nazorat qilishni o‘z zimmamda qoldiraman.

Agentlik direktori

  
A. Burxanov

**Ochiqlikni ta'minlashga mas'ul xodimlar bilan shartnomalar tuzishda  
qo'llash uchun tavsiyaviy xususiyatga ega bo'lgan ochiqlikni ta'minlash  
sohasida qonunchilik talablarini buzganlik uchun  
intizomiy javobgarlikni belgilovchi**

**NAMUNAVIY SHARTLAR**

1. Davlat organlari va (yoki) tashkiloti (keyingi o'rinlarda – **Ish beruvchi**) ochiqlikni ta'minlashga mas'ul xodimlari (keyingi o'rinlarda – **Xodim**) bilan shartnoma tuzishda ochiqlikni ta'minlash sohasidagi qonunchilik hujjatlarida belgilangan talablarga qat'iy rioya qilishni kelishib oladilar.

2. Shartnomada qo'shimcha ravishda alohida "**Ochiqlikni ta'minlash sohasidagi qo'shimcha shartlar**" bo'limi kiritilib, agar qonunda boshqa holat ko'rsatilmagan bo'lsa, mazkur shartlar bir taraflama o'zgartirilishi mumkin emas.

3. Xodimning ochiqlikni ta'minlash sohasidagi vazifalari kasaba uyushmasi qo'mitasi bilan kelishgan holda tashkilotning ichki tartib qoidalari, intizom to'g'risidagi ustav, lavozim yo'riqnomasi, nizom va boshqa ichki (lokal) hujjatlarda (jamoa shartnomalari, yo'riqnoma va boshqalar) belgilab qo'yilishi mumkin.

4. Xodim shartnomadagi ochiqlikni ta'minlash sohasidagi qo'shimcha shartlarni tan oladi va ularga rioya etish bo'yicha barcha zarur choralarni ko'rilishini ta'minlaydi.

**5. Xodim qonunchilik hujjatlarida belgilangan ochiqlikni ta'minlash sohasidagi quyidagi majburiyatlarga rioya qilinishini ta'minlashi shart:**

a) ochiqlik, shaffoflik va hisobdorlikni ta'minlashda davlat organlari, boshqa tashkilotlar, ommaviy axborot vositalari hamda fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan hamkorlik tamoyili asosida amalga oshirish;

b) ochiq ma'lumotlar to'plamlarini tayyorlash, qayta ishlash va tarqatish, shu jumladan axborot stendlari va (yoki) shunday maqsad uchun mo'ljallangan boshqa texnik vositalarni ishlab chiqish faoliyatini muvofiqlashtirish, bu borada ichki idoraviy hujjatlarni amaldagi qonunchilik talablari asosida takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

v) ochiq e'lon qilinishi kerak bo'lgan ma'lumotlar va ko'rsatiladigan elektron davlat xizmatlarini qonunchilik hujjatlarida belgilangan axborot resurslarida o'z vaqtida, to'liq va sifatli joylashtirilishi, davriy yangilab borilishi, erkin va bepul foydalanish (pullik xizmatlar bundan mustasno) imkoniyatini ta'minlash;

**g)** rasmiy veb-sayt orqali taqdim etilishi majburiy tartibi belgilangan (ro'yxatga kiritilgan) elektron davlat xizmatlarining (pullik elektron davlat xizmatlari bundan mustasno) dolzarbligini ta'minlash qoidalariga rioya qilishi;

**d)** ochiq ma'lumotlar sifatida joylashtirilishi kerak bo'lgan ijtimoiy ahamiyatga molik ma'lumotlar ro'yxatiga kiritilgan ma'lumotlarni rasmiy veb-saytga joylashtirish (e'lon qilish) bo'yicha amaldagi qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibiga qat'iy rioya etish;

**e)** jismoniy va yuridik shaxslarning ochiqlikni ta'minlash, Internet so'rovlari va ochiq ma'lumotlarni taqdim etish, shuningdek, vakolatli davlat organlarining bu boradagi so'rovlarini qonunchilik hujjatlarida belgilangan muddatida ko'rib chiqish hamda haqqoniy ma'lumotlarni taqdim qilish;

**j)** ochiqlikni ta'minlash sohasidagi vakolat va vazifalarini tegishli mansabdor shaxslarning subektiv fikrlari ta'sir qilishiga yo'l qo'ymagan holda faqat qonunga bo'ysungan holda amalga oshirish;

**z)** davlat sirlari yoki qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sirdan iborat, shuningdek, oshkor etilishi natijasida shaxsning huquqlari va qonuniy manfaatlariga, jamiyat yoxud davlat manfaatlariga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan axborotni e'lon qilishda qonunchilikda belgilangan cheklovlarga qat'iy rioya qilish;

**6.** Xodim mazkur shartnomaning 5-bandida ko'rsatilgan qo'shimcha shartlarni uzrli sabablarsiz, aybli ravishda harakat yoki harakatsiziligi bilan bajarmaslik

va (yoki) lozim darajada bajarmaslik, shuningdek, ish beruvchining qonuniy talablarini bajarishdan uzrli sababsiz bosh tortishi qonunchilik hujjatlariga muvofiq javobgarlikka tortishga asos bo'ladi.

**7.** Ish beruvchi ochiqlikni ta'minlash sohasidagi majburiyatlariga rioya qilmaganligi oqibatida, mehnat intizomini buzgan xodimga nisbatan O'zbekiston Respublikasi Mehnat Kodeksining 182-moddasida belgilangan tartibda, ushbu Kodeksning 181-moddasida ko'rsatilgan intizomiy jazo choralaridan birini qo'llashga haqli.